



ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 22nd July 2022

KEY WORDS

Yangi O'zbekiston , taraqqiyot strategiyasi , ijtimoiy himoya , yangi renesans.

Kelajakka katta umid va ishonch bilan qarab , hamisha sabr-matonat bilan yashagan o'zbek xalqi ham 1991-yil 31-avgustda muqaddas orzusiga erishdi-jonajon Vatanimiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi.

Hech shubhasiz , istiqlol yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida tarixiy ishlar amalga oshirildi , mard va oliy janob xalqimizning bukilmaz irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi. Tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz Konstitutsiyasi – Asosiy qonunimiz ishlab chiqildi va qabul qilindi. Vatanimiz suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi. O'zbekistonda zamonaviy davlatchilik asoslari yaratilib , konstitutsiyaviy tuzumga asos solindi. Davlat hokimyatining uchta mustaqil tarmog'i – qonun chiqaruvchi , ijro etuvchi va sud

YANGI O'ZBEKISTON

Ikromova Ominaxon Elmurod qizi

Andijon davlat universitetining pedagogika instituti

ikromovavazbek08@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6880612>

ABSTRACT

Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki hohish-istak emas , balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan , mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy , ijtimoiy-iqtisodiy , ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan , xalqimizning asriy intilishlariga mos , uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir.

Yangi O'zbekiston – demokratiya , inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norm printsiplarga qat'iy amal qilgan holda , jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan , pirovad maqsadi xalqimiz uchun erkin , obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir.

hokimiyatlari qaror topdi. O'zbekiston Respublikasining suvereniteti va davlat mustaqilligini , sarhadlarimiz daxlsizligi , xalqimizning tinch-osoyshta hayoti hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlar tashkil etildi. Milliy valyutamiz – so'm joriy etildi va oltin-valyuta zaxiralarimiz shakllantirildi.

Qadimiy tariximiz , boy madaniy merosimiz , milliy-diniy qadriyatlarimiz , o'zligimiz tiklandi.

Ma'lumki , bugungi O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga – Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renesansga beshik bo'lgan. Bu jahon ilmfanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda.



Shuning uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renesans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlari sari ruhlantirmoqda.

Sh.Mirziyoyev o‘z nutqlarida Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 7 ta ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Mazkur kontseptual hujjatda islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta‘minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon qilib olindi. Xususan, unda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, adolat va qonun ustuvorligi, inson qadr – qimmatini ta‘minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma‘naviy va ma‘rifiy sohalarda islohotlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bundan tashqari global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini toppish, tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalarga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida birinchi o‘ringa shaxs, inson Qadri yuqori o‘ringa qo‘yilib, “inson – jamiyat – davlat” degan yangi tamoyil asosida davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etadi. Bir so‘z bilan aytganda, amaliy natija, inson manfaati, uning qadr-qimmatini bosh maqsadga aylangan.

Tan olib aytish joizki, o‘tgan 5 yilda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida qator tizimli islohotlar amalga oshirildi va ijobiy natijalarga erishildi, biroq shu bilan birga mazkur sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to‘sqinlik

qilayotgan qator muammo va kamchiliklar ham yo‘q emas. O‘tgan yillar mobaynida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlarga nazar soladigan bo‘lsak, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi yangicha ishlash mexanizmi joriy etildi. Ijtimoiy nafaqa bilan ta‘minlangan aholi soni qariyb 1,5 baravar oshirildi. Hamda Muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilarga oylik maoshini ekvivalent hisobida 1ming dollarga yetkazilishi o‘ylaymizki, barchaga birdek ma‘qul bo‘ldi.

Raqamlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, maktabgacha ta‘limdagi qamrov darajasi 2017 yilda 27,7 foizni tashkil qilgan, hozirda 62 foizni tashkil qilmoqda, 2030 yilga borib esa mazkur ko‘rsatkichni 80 foizga yetkazish maqsad qilinganligi ushbu sohada ham ulkan marralarni qo‘yayotganliginizdan dalolat beradi. Bitiruvchilarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi 2016 yili 9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022 yilga kelib 30 foizni tashkil qilmoqda, bu ko‘rsatkichni 50 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Xalqimiz salomatligini ta‘minlash doimo ustuvor vazifa bo‘lgan. Raqamlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, 2017 yilda sog‘liqni saqlash tizimiga byudjetdan ajratilgan jami mablag‘lar 7,1 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib bu ko‘rsatkich 14,8 trillion so‘mga yetdi. Prezidentimiz o‘z nutqida ushbu sohaga yo‘naltiriladigan mablag‘larni 2 baravar oshirish jumladan kelgusi 5 yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ekvivalent hisobida 1ming dollarga yetkazish mo‘ljallanayotganligi e‘lon qilishi mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan zahmatkash shifokorlarning mehnatlariga davlat tarafidan bo‘layotgan



yuksak e'tibor namunasi , desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki , keng ko'lamli islohotlar jarayoni izchil davom etib , ular sermahsul bo'lishidan butun xalqimiz manfaatdor. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda barcha davlat va jamoat tashkilotlari , fuqarolik jamiyati institutlari

, nodavlat notijorat tashkilotlarivakillari ham kamarbasta bo'lishiga umid qilamiz.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda xalqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezonga aylanishiga ishonchim komil.

References:

1. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Sh.Mirziyoyev (2022)
2. <https://strategy.uz>
3. <https://iiv.uz/yangi-o'zbekiston>
4. <https://yuz.uz>